



## INDIA'S MULTIVECTOR FOREIGN POLICY: CHARACTERISTICS, ACHIEVEMENTS AND PROSPECTS

*Ra'no Tuychiyeva*

*PhD in Political Science, Doctoral Candidate*

*Institute for Youth Issues Research and Training of Promising Personnel*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [rano-tuichiyeva@mail.ru](mailto:rano-tuichiyeva@mail.ru)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** India's foreign policy, strategic autonomy, multivector approach, geopolitics, economic diplomacy, energy security, climate diplomacy, technology, and innovations.

**Received:** 20.03.25

**Accepted:** 22.03.25

**Published:** 24.03.25

**Abstract:** The article examines the specifics of India's multivector foreign policy, including its historical foundations, modern dynamics, significance in the global political and economic environment, and prospects for further development. Special attention is paid to addressing the problems encountered in the successful implementation of this policy. The study provides examples of India's strategic autonomy, multivector approach, economic and energy diplomacy, as well as its innovation policy and global impact.

## HINDISTON KO'P VEKTORLI TASHQI SIYOSATI: O'ZIGA XOS JIHATLAR, YUTUQLAR VA ISTIQBOLLAR

*Ra'no To'ychiyeva*

*Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, doktorant*

*Yoshlar muammolarini o'rghanish va istiqbolli kadrlar tayyorlash institute*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [rano-tuichiyeva@mail.ru](mailto:rano-tuichiyeva@mail.ru)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Hindiston tashqi siyosati, strategik avtonomiya, ko'p vektorli yondashuv, geosiyosat, iqtisodiy diplomatiya, energetika xavfsizligi, iqlim diplomatiyasi, texnologiya va innovatsiyalar

**Annotatsiya:** Maqola Hindistonning ko'p vektorli tashqi siyosatining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilib, uning tarixiy asosi, zamonaviy dinamikasi, global siyosiy muhitdagi ahamiyati hamda istiqbollarini yoritishga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida duch kelinayotgan muammolar ham ko'rib chiqiladi. Hindistonning strategik avtonomiyasi, ko'p vektorli yondashuvi,

iqtisodiy diplomatiyasi, energetika xavfsizligi, iqlim diplomatiyasi yo‘nalishlari va tamoyillari misollar bilan tahlil qilinadi. Qolaversa, Hindistonning texnologiyalar va innovatsiyalar siyosati, yutuqlari va ularning global ta’siri ko‘rib chiqiladi.

## МНОГОВЕКТОРНАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ИНДИИ: СПЕЦИФИКА, ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ

**Раёно Туйчиева**

*Кандидат философских наук по политическим наукам*

*Институт изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Внешняя политика Индии, стратегическая автономия, многовекторный подход, geopolitika, экономическая дипломатия, энергетическая безопасность, климатическая дипломатия, технологии и инновации

**Аннотация:** Статья посвящена изучению специфики многовекторной внешней политики Индии, включая ее исторические основы, современную динамику, значение в глобальной политико-экономической среде и перспективы дальнейшего развития. Особое внимание уделено рассмотрению проблем, оставающихся на пути успешной реализации этой политики. В рамках исследования приведены примеры стратегической автономии, многовекторного подхода, экономической и энергетической дипломатии, а также инновационной политики Индии и ее глобального влияния. Ключевые слова: внешняя политика Индии, стратегическая автономия, многовекторный подход, geopolitika, экономическая дипломатия, энергетическая безопасность, климатическая дипломатия, технологии и инновации

### Kirish

Hindistonning tashqi siyosati, dunyoning boshqa yirik davlatlarnikidan farqli o‘laroq, o‘zining tarixiy rivojlanishi bilan birga, bugungi global dunyodagi siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik masalalariga bevosita javob beradigan ko‘p vektorli yondashuvga asoslanadi [14, 37-b.]. Bu siyosat nafaqat Hindistonning ichki manfaatlarini himoya qilishga, balki xalqaro miqyosda liderlikni ta’minlashga qaratilgan.

Xo'sh Hindistonning tashqi siyosati boshqalarnikidan nimasi bilan farq qiladi va qanday ustuvorliklarga ega bo'lmoqda?

Mazkur savolga quyidagi yo'naliishda javob izlab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni Hindiston tashqi siyosatini strategik avtonomiya tamoyili asosida qo'shni davlatlar bilan aloqalar, ko'p tomonlama hamkorlik, iqtisodiy diplomatiya, xavfsizlik va mudofaa siyosati, energetika va iqlim diplomatiyasi kabi yo'naliishlarda olib bormoqda.

Avvalo, mamlakat mustaqillikdan buyon o'zining strategik avtonomiyaga asoslangan yondashuvi (ya'ni Hindiston tashqi siyosati xalqaro maydondagi har qanday kuch markazidan mustaqil harakat qilish tamoyiliga asoslangan) va global masalalarga pragmatik munosabati bilan ajralib turadi [3, 54-b.]. Bu siyosat nafaqat mamlakatning o'z milliy manfaatlarini himoya qilishga, balki mintaqaviy va global miqyosda barqarorlik va rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Hindistonning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan **Qo'shilmaslik harakati** tamoyillari bugungi kunda "ko'p vektorli" tashqi siyosat sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu siyosat Hindistonning har qanday davlat yoki blokka mutlaq bog'lanib qolmasdan, bir vaqtning o'zida turli davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Hindiston Sovuq Urushdan keyin va ayniqsa, XXI asrda strategik avtonomiya siyosatini yangi sharoitlarga moslashtirdi. Global siyosiy va iqtisodiy muhitda yangi kuch markazlari paydo bo'lishi, mintaqaviy nizolar va global masalalar Hindistonni strategik manfaatlarini muvozanatlil amalga oshirishga undadi [16, 219-b.].

### **Adabiyotlar tahlili**

Hindistonning tashqi siyosati, strategik avtonomiya, ko'p tomonlama hamkorlik, iqtisodiy diplomatiya, energetika xavfsizligi va iqlim diplomatiyasi bo'yicha zamonaviy va klassik akademik adabiyotlar o'rganildi. Tadqiqotda yuqorida keltirilgan **24 ta ilmiy manbalar** asosiy material sifatida qo'llanildi. Hindiston Tashqi ishlar vazirligi, BMT, G20, BRICS va QUAD kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari va hujjatlari ko'rib chiqildi. Hindiston hukumati rasmiy manbalari, jumladan, [www.meainfo.uz](http://www.meainfo.uz) veb-sayti va yirik xalqaro tashkilotlarning hisobotlari tahlil qilindi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqolada Hindistonning ko'p vektorli tashqi siyosatini tahlil qilish uchun turli xil tadqiqot metodlari va manbalardan foydalanildi. Hindiston tashqi siyosatini o'rganishda realistik, liberal va konstruktivistik nazariyalar asosida muvozanatlil yondashuv qo'llanildi. Hindistonning AQSh, Rossiya, Xitoy va Janubiy Osiyo qo'shnilarini bilan munosabatlari individual holat sifatida o'rganildi. Mamlakatning Xalqaro Quyosh Alyansi (ISA), G20 sammitidagi tashabbuslari va BMTdagi faolligi tahlil qilindi. **Statistik ma'lumotlarni o'rganish orqali** Hindiston va yirik hamkor davlatlar o'rtasidagi savdo statistikasi (masalan, Xitoy bilan \$135 milliardlik savdo hajmi)

xalqaro tashkilotlar va hukumat hisobotlari ko'rib chiqildi. Mamlakatning energetika xavfsizligi va qayta tiklanadigan energiya sohasidagi statistik ma'lumotlari International Energy Agency (IEA) va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlaridan olindi. **Qo'shma tahlil yondashuvi asosida geosiyosiy o'zgarishlar, xususan,** Hindistonning global siyosiy dinamikasi va mintaqaviy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi xalqaro munosabatlar nazariyalari o'r ganildi. Hindistonning iqtisodiy siyosati xalqaro savdo va investitsiyalar kontekstida tahlil qilindi. Hindistonning tashqi siyosatida tarixiy omillarning o'rni va bugungi kun global siyosiy muhitga ta'siri ko'rib chiqildi. Mamlakat tashqi siyosatining xalqaro tashkilotlardagi faolligi va Janubiy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari kontekstual jihatdan o'r ganildi.

### Tahlil va natijalar

Bugungi global siyosiy va iqtisodiy muhitda Hindistonning ko'p vektorli tashqi siyosati uning geosiyosiy strategiyasida muhim o'r in tutadi. Hindistonning AQSh, Rossiya, Xitoy kabi yirik davlatlar bilan aloqalari, Janubiy Osiyo qo'shnilarini bilan iqtisodiy va diplomatik hamkorligi hamda xalqaro tashkilotlardagi faoliyati ushbu siyosatning keng ko'lamda izchil olib borilayotganini ko'rsatadi [17, 98-b.]. Ayniqsa, Hind-Tinch okeani mintaqasidagi xavfsizlik masalalari, energiya diplomatiyasi va global iqlim o'zgarishiga qarshi kurash Hindistonning xalqaro maydondagi faolligini yanada oshirmoqda.

Bu faollikni raqamlar va misollarda ko'rib chiqadigan bo'lsak, Hindiston harbiy-texnik hamkorlikda Rossiya bilan yaqin aloqalarni davom ettirmoqda. Hindiston Rossiyadan S-400 havo mudofaa tizimlarini xarid qildi, bu esa AQShning CAATSA (America's Countering America's Adversaries Through Sanctions Act) qonuniga qaramasdan amalga oshirildi. Bu Hindistonning o'z harbiy ehtiyojlarini siyosiy bosimdan mustaqil ravishda qondirishga qaratilgan harakati edi.

Hindiston va AQSh o'rtasidagi munosabatlar oxirgi o'n yillikda sezilarli darajada kuchaydi. 2008-yilda imzolangan **Hindiston-AQSh yadro kelishuvi** Hindistonning energetika xavfsizligini ta'minlash va texnologik hamkorlikni rivojlantirish imkonini berdi [22, 142-b.]. Hindiston strategik sheriklikni rivojlantirishda mustaqil pozitsiyasini saqlab qolgan holda harakat qilmoqda.

Hindiston Hind-Tinch okeani hududidagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun QUAD (Hindiston, AQSh, Yaponiya va Avstraliya ishtirokidagi strategik alyans) doirasida faol ishtirok etmoqda. Ammo Hindiston bu hamkorlikni Xitoy bilan o'zaro aloqalarga ta'sir qiladigan alyans sifatida emas, balki mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida ko'radi.

Hindiston Xitoy bilan chegaradagi ziddiyatlar (masalan, Ladakh va Doklam mojarolari) bo'lishiga qaramay, Xitoy bilan savdo hajmini yiliga \$100 milliarddan oshirib kelmoqda. Bu Hindistonning iqtisodiy manfaatlarini siyosiy masalalardan ajratib ko'rishga intilayotganidan dalolat beradi.

Hindiston global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda Xalqaro Quyosh Alyansi (ISA)ni yaratib, bu sohada o‘z liderligini mustahkamladi. Shu bilan birga, mamlakat o‘z milliy energetika siyosatini xalqaro majburiyatlardan mustaqil holda shakllantirmoqda.

**Strategik avtonomiyaning ahamiyati shuki,** u Hindistonga bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishda harakat qilish imkonini bermoqda. **Milliy xavfsizlik** sohasida Rossiya va AQSh bilan harbiy hamkorlik, **iqtisodiy manfaatlarda** Xitoy va Yevropa Ittifoqi bilan savdo aloqalari, **mintaqaviy barqarorlik** bo‘yicha Janubiy Osiyo qo‘shnilari bilan diplomatik aloqalar, **global masalalarda** Iqlim o‘zgarishi va qayta tiklanadigan energiya sohasidagi liderlik kabilar shular jumlasidandir.

**Biroq shu o‘rinda aytish lozimki, strategik avtonomiya bilan bog‘liq muammolar ham Hindiston oldida qiyin vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, geosiyosiy ziddiyatlarda** Hindistonning AQSh va Rossiya o‘rtasida balansni saqlashi ba’zan qiyin bo‘ladi. **Iqtisodiy bog‘liqlik sabab** Xitoy bilan savdo aloqalari, ayniqsa, Xitoydan import qilinadigan texnologiyalar, Hindistonning iqtisodiy mustaqilligiga ta’sir qilishi mumkin. **Qo‘shnilar bilan mojarolar tufayli** Pokiston va Xitoy bilan davom etayotgan chegara ziddiyatlari strategik avtonomiyani sinovdan o‘tkazadi.

Hindistonning strategik avtonomiya siyosati uning milliy manfaatlarini himoya qilish va global siyosiy o‘zgarishlarga moslashishdagi muhim tamoyildir. Hindistonning bir vaqtning o‘zida Rossiya, AQSh, Xitoy va boshqa davlatlar bilan aloqalarni muvozanatlashga qaratilgan harakatlari ushbu siyosatning muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, global raqobat va mintaqaviy ziddiyatlar Hindistonning strategik avtonomiyasini doimiy ravishda sinovdan o‘tkazib turadi.

Hindiston tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri — qo‘shni davlatlar bilan muloqotni rivojlantirish va Janubiy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minalashdir. "**Qo‘shni avval**" (**Neighborhood First**) tamoyili Hindistonning mintaqadagi liderlik rolini mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va xavfsizlikni ta’minalashga qaratilgan siyosatini aks ettiradi. Bangladesh bilan suv resurslarini boshqarish, Nepal va Bhutan bilan energetika hamkorligi, Shri-Lanka bilan savdo munosabatlari Hindistonning ushbu mintaqadagi siyosiy barqarorlikni ta’minalash maqsadlarini aks ettiradi. Hindiston qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni yaxshilash orqali o‘zining strategik manfaatlarini himoya qiladi, lekin bu jarayon qator ziddiyatlar va muammolar bilan kechmoqda.

Hindiston va Bangladesh o‘rtasidagi munosabatlar tarixan murakkab bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda ikki tomonlama hamkorlik sezilarli darajada yaxshilandi. Ganga daryosining suvlarini taqsimlash bo‘yicha 1996-yilda imzolangan shartnomalar ikki davlat o‘rtasidagi barqarorlikni ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etdi. Hindiston va Bangladesh 50 dan ortiq transchegaraviy

daryolarni boshqarishda birgalikda ishlamoqda. Hindistonning "Teesta suv taqsimoti" bo'yicha kelishuv taklifi hali hal qilinmagan muhim masala bo'lib qolmoqda. Bangladesh Hindistonning Janubiy Osiyodagi ikkinchi yirik savdo hamkoridir. 2022-yilda ikki davlat o'rtaсидаги savdo hajmi \$10 milliardni tashkil etdi. Hindiston Bangladeshga elektr energiya eksport qilib, uning energetik ehtiyojlarini qisman ta'minlamoqda. Hindiston va Bangladesh chegaradosh hududlarda terrorizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashmoqda. Hindistonning Shimoliy-Sharqiy shtatlaridagi isyonchilarni nazorat qilishda Bangladeshning yordam berishi muhim o'rinn tutadi. Biroq Teesta daryosining suvlarini taqsimlash masalasi hali hal qilinmagan va bu ikki tomonlama munosabatlarga ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq Hindiston va Pokiston o'rtaсидаги munosabatlar murakkab va ziddiyatlarga boy. Asosiy nizolar Kashmir masalasi, terrorizm va chegaradagi mojarolarga bog'liq. 2019-yilda Hindiston Jammu va Kashmiring maxsus maqomini bekor qildi, bu esa Pokistonning kuchli qarshiligiga sabab bo'ldi. Hindiston Pokistonni transchegaraviy terrorizmni qo'llab-quvvatlashda ayblaydi. 2016-yilda Uri hujumi va 2019-yilda Pulvama teraktidan so'ng Hindiston Pokistonning terrorchilikka aloqadorligini jahon hamjamiatiga yetkazishga intildi. Ikki davlat o'rtaсидаги savdo imkoniyatlari chegaradagi nizolar sabab sezilarli darajada cheklangan. 2019-yilda Hindiston Pokiston bilan barcha savdo aloqalarini to'xtatdi.

Hindiston va Nepal o'rtaсидаги tarixiy va madaniy aloqalar juda chuqur, ammo oxirgi yillarda ayrim masalalarda ziddiyatlar kuzatilmoqda. Davlatlar o'rtaсидаги Kalapani hududiga oid chegara nizosi ikki tomonlama munosabatlarni murakkablashtirgan. Hindiston Nepalda gidroenergetika loyihalarini rivojlantirishga sarmoya kiritmoqda. Nepalning gidroenergiya salohiyati Hindistonning Shimoliy hududlari uchun muhim energiya manbai hisoblanadi. Hindiston Nepalning eng yirik savdo hamkori bo'lib, uning eksport va import hajmining 60% Hindiston bilan bog'liq. Ammo Nepalning Xitoy bilan yaqinlashuvi Hindistonning mintaqadagi liderlik roliga tahdid solishi mumkin.

Hindiston va Shri-Lanka o'rtaсидаги munosabatlar ham iqtisodiy, ham strategik ahamiyatga ega. Hindiston Shri-Lankadagi Tamil isyonchilariga qarshi kurashda muhim rol o'ynagan. 1987-yilda Hindiston Shri-Lankaga tinchlikparvar kuchlarini yuborgan, lekin bu harakat ziddiyatli baholangan. Hindiston Shri-Lankaning ikkinchi yirik savdo hamkori bo'lib, energetika va infratuzilma loyihalariga sarmoya kiritmoqda. **Misol uchun** Hindiston Shri-Lankada port va temir yo'l loyihalarini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Shri-Lankaning Xitoy bilan yaqinlashuvi esa Hindiston uchun strategik xavf tug'diradi. Xitoyning Shri-Lanka portlarini moliyalashtirishi Hindistonni tashvishga solmoqda.

Hindiston va Bhutan munosabatlari Janubiy Osiyodagi eng barqaror va do'stona aloqalar qatoriga kiradi. Bhutan Hindistonga gidroenergetika eksport qiladi. Hindiston Bhutan gidroelektr

loyihalariga sezilarli sarmoya kiritmoqda. Bunga misol Hindiston tomonidan amalga oshirilgan Chhukha gidroelektr loyihasi. Hindiston Bhutan tashqi siyosatida muhim o‘rin tutadi. Xitoy bilan chegara nizolari yuzaga kelganda, Hindiston Bhutanni faol qo‘llab-quvvatladi (Doklam mojarosi, 2017).

Quyida Hindistonning asosiy qo‘shni davlatlari bilan munosabatlari iqtisodiy, xavfsizlik va siyosiy jihatdan solishtirilgan holda tahlil qilinadi.

<b>Qo‘shni davlat</b>	<b>Iqtisodiy hamkorlik</b>	<b>Xavfsizlik masalalari</b>	<b>Mojarolar</b>
<b>Bangladesh</b>	Ijobiy, savdo hajmi yuqori	Terrorizmga qarshi birgalikda kurash	Suv resurslari bo‘yicha kelishmovchilik
<b>Pokiston</b>	Savdo deyarli mavjud emas	Terrorizm va Kashmir mojarosi	Chegaradagi harbiy ziddiyatlar
<b>Nepal</b>	Savdo va energetika rivojlangan	Xitoy bilan yaqinlashuv xavfi	Chegara nizolari (Kalapani)
<b>Shri-Lanka</b>	Infratuzilma va transport rivojlanmoqda	Tamil isyonchilari masalasi hal etilgan	Xitoyning Shri-Lankadagi ta’siri
<b>Bhutan</b>	Gidroenergetikada mustahkam hamkorlik	Strategik hamkorlik kuchli	Suverenitet bo‘yicha tashvishlar

Ko‘rib turganimizdek, Hindistonning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari turli xil darajada rivojlangan. Bangladesh va Bhutan bilan hamkorlik ijobiy rivojlanmoqda, ayniqsa, iqtisodiy va energetika sohalarida. **Biroq** Nepal va Shri-Lanka bilan aloqalar asosan barqaror, lekin Xitoy ta’siri Hindistonning strategik manfaatlariga tahdid tug‘dirmoqda va murakkab munosabatlar saqlanib qolmoqda [9, 12-b.]. Pokiston bilan aloqalar doimiy mojarolar va ishonchsizlik bilan xarakterlanadi [18, 67-b.].

Hindiston mintaqadagi liderligini saqlab qolish va qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash uchun uzoq muddatli strategik yondashuv va diplomatik sa’y-harakatlarni kuchaytirishi zarur.

Xulosa o‘rnida aytsak, Hindistonning qo‘shni davlatlar bilan aloqalari uning tashqi siyosatining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik masalalarida muhim rol o‘ynaydi. Janubiy Osiyoda barqarorlikni ta’minalash uchun Hindiston qo‘shnilar bilan hamkorlikni kuchaytirishda davom etmoqda. Ammo chegara ziddiyatlari va mintaqaviy nizolar Hindistonning bu boradagi sa’y-harakatlarini murakkablashtiradi. Shu sababli, Hindiston o‘z diplomatik yondashuvini yanada puxta va uzoq muddatli strategiyalar asosida amalga oshirishi lozim.

Keyingi asosiy yo‘nalish sifatida Hindiston ko‘p tomonlama hamkorlikda BMT, G20, BRHXJA (BRICS), QUAD va boshqa xalqaro tashkilotlarda faol qatnashadi. Ushbu tashkilotlar orqali Hindiston global iqtisodiy o‘sish, xavfsizlik va iqlim masalalarini hal qilishga qaratilgan

tashabbuslarni ilgari suradi. Hindistonning ko‘p tomonlama hamkorlik siyosati uning xalqaro maydondagi strategik manfaatlarini himoya qilish va global masalalarga ta’sir ko‘rsatish uchun asosiy vositalardan biridir. Hindiston xalqaro tashkilotlar, forumlar va alyanslarda faol qatnashib, iqtisodiy rivojlanish, xavfsizlik, ekologiya va barqarorlikka oid masalalarda o‘z pozitsiyasini mustahkamlab kelmoqda. Quyida Hindistonning ko‘p tomonlama hamkorlik doirasidagi asosiy yo‘nalishlari va misollari tahlil qilinadi.

Hindiston BMT orqali global tinchlikni saqlash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va iqtisodiy rivojlanish masalalariga e’tibor qaratadi. Misol uchun mamlakat o‘zining iqtisodiy qudrati va global siyosiy roli asosida BMT Xavfsizlik Kengashida doimiy a’zolikni talab qilmoqda. Bu talab G4 davlatlari (Hindiston, Germaniya, Yaponiya, Braziliya) tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shuningdek, Hindiston BMTning tinchlikparvar missiyalarida eng ko‘p harbiy kuch taqdim qiluvchi davlatlardan biridir. So‘nggi 70 yil ichida Hindiston 200 mingdan ortiq harbiy xizmatchini BMT missiyalariga yuborgan.

Hindiston global iqtisodiy siyosatni shakllantirishda faol ishtirok etadi. G20 sammitlari orqali Hindiston xalqaro savdo, moliyaviy barqarorlik va texnologik rivojlanishga oid tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan, Hindiston 2023-yilda G20 sammitiga mezbonlik qildi. Ushbu sammitda Hindiston iqlim o‘zgarishi, yashil energiya va texnologik innovatsiyalar masalalarini kun tartibiga qo‘ydi. Hindiston G20 orqali rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilmoqda, jumladan, qarzdor davlatlar uchun moliyaviy yordam dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Hindiston BRHXJA (**Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika** (BRICS)) ning asoschilaridan biri sifatida rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini himoya qilish uchun muhim rol o‘ynaydi. 2014-yilda tashkil etilgan Yangi Taraqqiyot Banki (New Development Bank) rivojlanayotgan davlatlar uchun moliyaviy yordam ko‘rsatadi. Hindiston ushbu bank orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda. Hindiston BRICS doirasida global xavfsizlik masalalarini muhokama qilib, terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Hindiston, AQSh, Yaponiya va Avstraliya ishtirokidagi QUAD alyansi Hind-Tinch okeani mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan. Hindiston Hind-Tinch okeani hududida Xitoyning kengayuvchi ta’siriga qarshi balans yaratish uchun QUAD doirasida faol ishlamoqda. 2021-yilda Hindiston QUAD doirasida "Malabar" dengiz harbiy mashg‘ulotlarini o‘tkazdi. Bu mintaqadagi dengiz xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan.

Hindistonning "Sharqqa qarab harakat" siyosati (Act East Policy) **JShODA (Janubiy Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN))** bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. ASEAN Hindistonning yirik savdo hamkorlaridan biridir. 2022-yilda

ikki tomonlama savdo hajmi \$110 milliardni tashkil etdi. Hindiston ASEAN davlatlari bilan texnologiya va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kuchaytirmoqda.

Hindiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishda liderlik qilmoqda. Hindiston 100 dan ortiq davlatni birlashtirgan Xalqaro Quyosh Alyansini tashkil qildi. Ushbu alyans doirasida rivojlanayotgan davatlarda quyosh energiyasi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Tahlil qiladigan bo‘lsak, **global yetakchilikda** Hindiston BMT, G20 va BRICS kabi tashkilotlarda rivojlanayotgan davatlarning manfaatlarini ilgari suruvchi davlat sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlagan. Mamlakat QUAD orqali mintaqaviy xavfsizlikka sezilarli hissa qo‘shmoqda. G20 va BRICS doirasidagi faoliyati orqali Hindiston xalqaro iqtisodiy barqarorlikni ta’minalashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surmoqda [6, 45-b.]. **Muammolarga to‘xtaladigan bo‘lsak**, Hindistonning Xitoy bilan BRICS va ASEAN doirasidagi hamkorligi, Xitoyning kengayuvchi ta’siri sababli, murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda ba’zan Hindiston moliyaviy va texnologik cheklowlarga va resurslar yetishmovchiligiga duch kelmoqda.

Hindistonning ko‘p tomonlama hamkorlik siyosati uning xalqaro nufuzini oshiradi va global muammolarga ijobiy hissa qo‘shadi. Hindiston xalqaro tashkilotlar va alyanslarda faollik ko‘rsatib, iqlim o‘zgarishi, iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlik masalalarida liderlik rolini mustahkamlashga intilmoqda. Ammo geosiyosiy ziddiyatlar va iqtisodiy cheklowlarni yengib o‘tish uchun Hindiston o‘z strategiyasini doimiy ravishda takomillashtirishi zarur.

Xalqaro savdo va investitsiyalarni rivojlantirish Hindiston tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir. Xitoy va AQSh bilan savdo aylanmasining ko‘payishi, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan yashil energiya sohasidagi hamkorlik iqtisodiy aloqalarni mustahkamamoqda. Darhaqiqat, Hindistonning iqtisodiy diplomatiyasi tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, global savdo, investitsiyalarni jalb qilish, energetika xavfsizligini ta’minalash va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Zamonaviy global iqtisodiyotda Hindiston rivojlanayotgan davlat sifatida o‘zining iqtisodiy imkoniyatlarini xalqaro miqyosda mustahkamlash uchun ko‘p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlikni amalga oshirmoqda [15, 215-b.].

Mamlakatning iqtisodiy diplomatiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- 1. Savdo va investitsiyalarni kengaytirish:** Hindiston xalqaro savdo hajmini oshirish orqali global bozorlardagi ishtirokini kuchaytirishga intiladi.
- 2. Energetika xavfsizligini ta’minalash:** Hindiston o‘zining energiyaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantiradi.

**3. Texnologik hamkorlik:** Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va eksport qilish orqali texnologik raqobatbardoshlikni oshirish.

**4. Kambag' al davlatlarni qo'llab-quvvatlash:** Iqtisodiy rivojlanishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan davlatlarga yordam berish orqali xalqaro nufuzni oshirish.

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar geosiyosiy ziddiyatlarga qaramay, juda katta hajmda davom etmoqda. **Misol uchun** 2022-yilda Hindiston va Xitoy o'rtasidagi savdo hajmi \$135 milliardni tashkil etdi. Xitoy Hindistonning eng yirik import hamkori bo'lib, elektronika, texnologiyalar va mashinalarni yetkazib beradi. Biroq Hindiston uchun muammo Xitoyning mamlakat bozoridagi ta'siri mahalliy ishlab chiqaruvchilariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

AQSh Hindistonning yirik iqtisodiy hamkorlaridan biri bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi yiliga \$125 milliardga yetdi. Hindiston IT xizmatlarini eksport qilishda AQSh asosiy iste'molchilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Hindiston va AQSh o'rtasida yadro energetikasi sohasida hamkorlik rivojlanmoqda.

Yevropa Ittifoqi Hindistonning uchinchi yirik savdo hamkori hisoblanadi. 2022-yilda ikki tomonlama savdo hajmi \$88 milliardni tashkil etdi. Yevropa Hindiston uchun mashina va farmatsevtika mahsulotlari bozoridir.

Shuningdek, Hindiston energiya xavfsizligini ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratadi. Mamlakat dunyodagi eng yirik neft import qiluvchi davlatlardan biri bo'lib, OPEK davlatlari bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzadi. Hindiston Rossiyadan ham neft va gaz importini oshirmoqda. Birgina 2022-yilda Hindiston Rossiyadan import qilgan energiya hajmi 30 foizga oshgandi. Yana Hindiston Xalqaro Quyosh Alyansi (ISA)ni yaratib, quyosh energiyasi bo'yicha global yetakchilikni qo'lga kiritdi. Qolaversa, Hindiston Janubi-Sharqiy Osiyo va Hind-Tinch okeani mintaqasida savdo imkoniyatlarini kengaytirish uchun ASEAN va RCEP kabi savdo kelishuvlarida ishtiroy etmoqda. Misol uchun ASEAN bilan savdo hajmi 2022-yilda \$110 milliardni tashkil etdi.

Hindiston iqtisodiy diplomatiyada texnologiya eksporti va texnologik hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratmoqda. **Mamlakat** dunyodagi eng yirik IT xizmatlarini eksport qiluvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Infosys, TCS va Wipro kabi Hindiston kompaniyalari xalqaro bozorlarda yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Hindiston kosmik tadqiqotlar sohasida liderlikni qo'lga kiritmoqda. ISRO tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar boshqa davlatlarga eksport qilinmoqda.

Bir so'z bilan aytganda Hindistonning iqtisodiy diplomatiyasi uning global siyosatdagi strategik manfaatlarini himoya qilish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim vositadir. Savdo, energetika va texnologik sohalardagi yutuqlar Hindistonning global yetakchilikka

intilishini aks ettiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy diplomatiyaning muvaffaqiyati geosiyosiy ziddiyatlarni hal qilish va mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik choralarga bog'liq.

Hindistonning xavfsizlik siyosati uning harbiy qudratini oshirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Rossiya bilan BrahMos raketa tizimi, AQSh bilan mudofaa texnologiyalari sohasidagi kelishuvlar ushbu yondashuvning asosiy yo'naliшlaridir. Shuningdek, xavfsizlik siyosati Hindistonning xavfsizlik va mudofaa siyosati uning milliy suverenitetini himoya qilish, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro xavfsizlikka hissa qo'shish tamoyillariga asoslanadi. Hindiston o'zining murakkab geografiyasi, ko'p sonli qo'shnilar va mintaqadagi strategik ahamiyatini hisobga olib, harbiy kuchini modernizatsiya qilishga va xalqaro xavfsizlik hamkorliklarini rivojlantirishga intilmoqda. Hindistonning xavfsizlik va mudofaa siyosatining asosiy yo'naliшlarini milliy mudofaa, mintaqaviy barqarorlik, global xavfsizlik kabi qamrovlarda o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hindiston avvalo o'zining milliy mudofaasini mustahkamlash uchun harbiy-texnik salohiyatni oshirishga alohida e'tibor qaratadi. Bu yondashuv harbiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mudofaa sanoatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mamlakat mintaqaviy ziddiyatlarni kamaytirish va barqarorlikni ta'minlash uchun diplomatik yondashuv va harbiy kuchni muvozanatli qo'llashni maqsad qiladi. Qolaversa, Hindiston xalqaro tinchlikni saqlash, terrorizmga qarshi kurash va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishini oldini olish kabi masalalarda faol ishtirok etadi [1, 88-b.].

Hindiston o'z qurolli kuchlarini zamonaviy qurol-aslahalar va texnologiyalar bilan ta'minlashga katta sarmoya kiritmoqda. Misol uchun mamlakat Rossiyadan S-400 havo mudofaa tizimini sotib oldi, bu mintaqadagi harbiy kuchlar muvozanatini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Hindistonning BrahMos raketasi ham Rossiya bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va dunyodagi eng tezkor qanotli raketalardan biri hisoblanadi.

Hindiston o'z mudofaa sanoatini rivojlantirishda "Make in India" tashabbusi doirasida mahalliy qurol va texnologiyalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Hindistonning Hindustan Aeronautics Limited (HAL) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Tejas qiruvchi samolyoti bunga misol bo'la oladi.

Alohibda ta'kidlash lozimki, Hindiston va Xitoy o'rtasidagi chegaraviy ziddiyatlar xavfsizlik siyosatining muhim jihatlaridan biridir. 2020-yilda Ladakh hududidagi Galvan vodiysi mojarosida Hindiston va Xitoy kuchlari o'rtasida to'qnashuv yuz berdi. Bu voqeа ikki davlat o'rtasidagi harbiy qarama-qarshilikni yanada kuchaytirdi.

Hindiston va Pokiston o'rtasidagi Kashmir masalasi xavfsizlik siyosatining eng dolzARB masalasi hisoblanadi. 2019-yilda Pulvama teraktidan so'ng Hindiston Pokistonga aviazarbalar uyushtirdi, bu esa ikki davlat o'rtasidagi keskinlikni yanada oshirdi.

Hindiston BMTning eng yirik tinchlikparvar kuch ta'minlovchi davlatlaridan biri hisoblanadi. So'nggi 70 yil ichida Hindiston 200 mingdan ortiq tinchlikparvar kuchlarni BMT missiyalariga yuborgan. Hindiston global terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni faol qo'llab-quvvatlaydi. Mamlakat 2022-yilda BMTda xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo'yicha mustahkam global platforma yaratishni taklif qildi. Hindiston Hind-Tinch okeani hududida barqarorlikni ta'minlash uchun QUAD (Hindiston, AQSh, Yaponiya va Avstraliya) doirasida faol ishlamoqda. QUAD doirasida harbiy mashg'ulotlarda ishtirok etib, dengiz xavfsizligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shamoqda. **Mamlakat** QUAD orqali Xitoyning mintaqadagi kengayuvchi ta'siriga qarshi barqarorlikni ta'minlashni maqsad qiladi.

Hindistonning yadro siyosati "Birinchi bo'lib zarba bermaslik" tamoyiliga asoslangan. Bu tamoyil yadro qurollarining faqat mudofaa maqsadida qo'llanishini nazarda tutadi. Hindiston xalqaro yadro kelishuvlariga amal qilish orqali yadro qurollarining tarqalishini oldini olishga qaratilgan. Shuningdek, mamlakat o'zining yadro salohiyatini mustahkamlash bilan birga tinch yadro energetikasini rivojlantirishga ham e'tibor qaratmoqda. Misol uchun Hindistonning Kalpakkam va Koodankulam yadro elektr stansiyalari energetika ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega.

Hindistonning xavfsizlik va mudofaa siyosati uning milliy manfaatlarini himoya qilish va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash uchun muhim vositadir. Harbiy kuchni modernizatsiya qilish, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash va global xavfsizlikka hissa qo'shish Hindistonning xavfsizlik strategiyasining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, Xitoy va Pokiston bilan ziddiyatlarni muvozanatlash va harbiy infratuzilmani yanada rivojlantirish Hindistonning kelajakdagi asosiy vazifalari bo'lib qoladi.

Energetika xavfsizligini ta'minlash va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash Hindistonning xalqaro miqyosdagi tashabbuslarining muhim qismi hisoblanib, uning global iqtisodiy o'sish, energiya xavfsizligini ta'minlash va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi strategik yondashuvlaridan biridir. Xalqaro Quyosh Alyansi (ISA) Hindistonning bu boradagi liderligini tasdiqlaydi [10, 56-b.]. Hindiston, dunyoning uchinchi yirik energiya iste'molchisi sifatida, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga intiladi. Shu sabab ham mamlakat xalqaro miqyosda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha faol siyosat yuritmoqda. Bu sohada Hindiston energiya xavfsizligini ta'minlash, qayta **tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni yanada rag'batlantirish hamda energiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi yo'nalishlarda**

**ish olib bormoqda.** Shuningdek, mamlakat energetika tarmog‘ini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va energiya yetkazib berish tizimini diversifikatsiya qilish orqali ichki va tashqi bozorlardagi barqarorlikni ta’minlamoqda.

Hindistonning iqlim diplomatiyasi bo‘yicha amaliyotini misollarda tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakat 2015-yilgi Parij iqlim kelishuvini imzolagan va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha qat’iy majburiyatlar olgan [23, 29-b.]. Qolaversa, 2030-yilgacha Hindiston energiya ishlab chiqarishining 50 foizini qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olishni rejalashtirgan hamda iqlim o‘zgarishiga moslashuv uchun iqtisodiy va texnologik choralarni joriy etmoqda. Masalan, suv resurslarini boshqarish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash uchun irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilmoqda. Alovida ta’kidlash lozimki, Hindiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda rivojlanayotgan davlatlarni qo‘llab-quvvatlash va texnologik yordam ko‘rsatishni o‘zining diplomatik vazifalaridan biri deb biladi.

**Xalqaro Quyosh Alyansi (ISA)** Hindiston tashabbusi bilan tashkil etilgan global alyans bo‘lib, qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasini rivojlantirishni maqsad qiladi. ISA doirasida Hindiston Afrikaning bir nechta davlatlariga quyosh panellari va boshqa texnologiyalarni yetkazib berdi. Shuningdek, Hindiston va Rossiya energetika sohasida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha strategik kelishuvlarga erishdi. Mamlakat Rossiyadan Sibir gaz quvuridan foydalanib gaz importini rejalashtirgan. Qolaversa, Hindiston yashil energiya sohasida yirik investitsiyalarni jalb qilmoqda. Mamlakatning Gujarat va Rajasthan shtatlarida quyosh va shamol energiyasi loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar dunyodagi eng yirik qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasidan biridir.

OPEK va Rossiya bilan imzolangan uzoq muddatli shartnomalar Hindistonning energiyaga bo‘lgan ehtiyojlarini barqaror qondirish imkonini bermoqda. ISA orqali Hindiston iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha global lider sifatida tanildi. Hindistonning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda uglerod chiqindilari hajmi oshib bormoqda. Bu Parij kelishuvi bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga to‘sinqlik qilishi mumkin. Shu bilan birga katta hajmdagi sarmoyalar talab qiluvchi qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasi hali to‘liq rivojlanmagan. Ustiga ustak Hindiston iqlim masalalarida rivojlangan davlatlar bilan kelishuvlarga erishishda moliyaviy va texnologik cheklov larga duch kelmoqda.

Muammolar ko‘lamiga qaramasdan, mamlakatning bu sohadagi yutuqlari ham ko‘payib bormoqda. Xususan, Hindiston quyosh energiyasi texnologiyalarini eksport qilib, rivojlanayotgan davlatlar energetika infratuzilmasini rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda. Mamlakatning yashil energiyaga o‘tishi global issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Hindistonning qayta tiklanadigan energiya va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha tashabbuslari global barqaror rivojlanishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sabab u endi qayta tiklanadigan energiya

bo'yicha global liderlikni qo'lga kiritdi. Energetika xavfsizligini ta'minlash uchun OPEK va Rossiya bilan uzoq muddatli kelishuvlarga erishdi. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda rivojlanayotgan davlatlarga texnologik yordam ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, Hindistonning energetika va iqlim diplomatiyasi uning xalqaro nufuzini oshirish, energiya xavfsizligini ta'minlash va global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi. Hindiston qayta tiklanadigan energiyaga investitsiyalarni oshirish, yashil energiya eksportini rivojlantirish va rivojlanayotgan davlatlarni qo'llab-quvvatlash orqali global barqarorlikka hissa qo'shamoqda. Shu bilan birga, Hindistonning energetika va iqlim siyosatidagi muvaffaqiyati xalqaro hamkorlik va mahalliy resurslarni samarali boshqarishga bog'liq.

Hindiston texnologiya va innovatsiyalar sohasida dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylanib bormoqda. IT (informatsion texnologiyalar), kosmik tadqiqotlar, farmatsevtika, va boshqa sohalardagi rivojlanish mamlakatning iqtisodiy o'sishini tezlashtirib, xalqaro nufuzini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Tahlil qiladigan bo'lsak, Hindistonning texnologik rivojlanish strategiyasi quyidagi asosiy yo'naliishlarga qaratilgan:

- 1. Mahalliy Innovatsiyalarni Rivojlantirish;**
- 2. Texnologiyalarni Eksport Qilish;**
- 3. Raqamli Transformatsiya;**
- 4. Xalqaro Hamkorlik.**

Hindiston dunyodagi eng yirik IT xizmatlari eksport qiluvchi davlatlardan biri hisoblanadi. TCS, Infosys, Wipro kabi kompaniyalar global IT xizmatlari bozorining yirik o'yinchilaridir. 2022-yilda Hindistonning IT xizmatlari eksporti hajmi \$200 milliarddan oshdi. Shuningdek, mamlakat "Startap Millati" sifatida tanilgan, bu yerda 100 dan ortiq "unicorn" kompaniya (baho \$1 milliarddan ortiq bo'lgan startaplar) mavjud. Paytm, Flipkart va Zomato kabi kompaniyalar global bozorda muvaffaqiyat qozonmoqda. "Digital India" tashabbusi orqali mamlakatning raqamli infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Aadhaar tizimi dunyodagi eng yirik biometrik identifikatsiya loyihasi bo'lib, Hindistonda 1,3 milliarddan ortiq odamni qamrab oladi.

Hindistonning kosmik tadqiqotlar tashkiloti (ISRO) dunyoda o'zining arzon va samarali missiyalari bilan mashhur bo'lib, 2014-yilda Hindiston Marsga o'zining birinchi "Mangalyaan" sun'iy yo'ldoshini muvaffaqiyatli yubordi. Bu loyiha dunyodagi eng arzon Mars missiyasi bo'ldi (\$74 mln). Qolaversa, mamlakat tijorat kosmik xizmatlarini rivojlantirishda faol ishtirot etmoqda. Birgina PSLV raketasi orqali 2017-yil bir vaqtning o'zida 104 ta sun'iy yo'ldoshni uchirish rekordi o'rnatildi. Oyga sun'iy yo'ldosh va robotni muvaffaqiyatli yetkazish bo'yicha yangi missiya amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, Hindiston dunyodagi eng yirik farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlatlardan biridir. Hindiston global darajadagi generik dorilar bozorining 20% ulushiga ega. COVID-19 pandemiyasi davrida Hindiston "Vaksina Diplomatiyasi" orqali 100 dan ortiq davlatga vaksinalar yetkazib berdi. Biotexnologiyalar sohasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Bharat Biotech kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Covaxin vaksinasining sinovi muvaffaqiyatli o'tdi.

"Make in India" tashabbusi mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish va texnologik mahsulotlarni eksport qilishga qaratilgan. Hindiston Samsung va Foxconn kabi kompaniyalarning ishlab chiqarish quvvatlarini o'ziga jalb qilishga muvaffaq bo'ldi. Mamlakat innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Startap India dasturini joriy qildi.UPI (Unified Payments Interface) tizimi to'lovlarni osonlashtirish orqali butun dunyoda e'tirof etildi.

Shubhasiz, Hindistonning texnologiya va innovatsiya siyosati uning iqtisodiy o'sishi va xalqaro nufuzini oshirishda muhim rol o'ynaydi. IT xizmatlari, kosmik texnologiyalar, farmatsevtika va startap sohalarida erishilgan yutuqlar Hindistonni global texnologik liderlar qatoriga qo'shamoqda. Shu bilan birga, infratuzilmani yaxshilash va xalqaro texnologik hamkorlikni kuchaytirish Hindistonning keljakdagi muvaffaqiyati uchun muhim omil bo'lib qoladi.

### Xulosa

Yuqorida tahlillarga tayanib xulosa qilish mumkinki, Hindistonning tashqi siyosatidagi ko'p vektorli yondashuv unga xalqaro maydonda muhim rol o'ynash imkonini beradi. Strategik avtonomiya, qo'shnilar bilan muloqot, xalqaro tashkilotlardagi faol ishtirok va iqtisodiy hamkorlikning kuchayishi Hindistonning global siyosiy o'zgarishlarga moslashishini ta'minlaydi. Mamlakatning texnologiya va innovatsiya sohasidagi yutuqlari uning global miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biriga aylangan. Mamlakat IT xizmatlari, kosmik tadqiqotlar, farmatsevtika va startap innovatsiyalari sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishib, iqtisodiy o'sish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Umumiyligida, Hindistonning tashqi siyosati uning milliy manfaatlarini global miqyosda himoya qilish va xalqaro masalalarda muhim o'rinnegallashga qaratilgan. Mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro savdoni rivojlantirish va iqtisodiy integratsiya orqali Hindiston global liderlikka intilmoqda.

### Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. Ashwarya, S. *India-Iran Relations: Progress, Problems and Prospects* / S. Ashwarya. – New Delhi: Routledge, 2017. – 320 p.
2. Bajpai, K., Basit, S. *India's Grand Strategy: History, Theory, Cases* / K. Bajpai, S. Basit. – London: Routledge, 2021. – 450 p.

3. Cohen, S. *India: Emerging Power* / S. Cohen. – Washington, D.C.: Brookings Institution Press, 2002. – 350 p.
4. Council on Foreign Relations (CFR). *India's Energy Security and Its Global Strategy*. – New York, 2021. – 275 p.
5. *India and China: The New Geopolitical Battleground* // Foreign Affairs Journal. – 2023. – Vol. 98, No. 3. – Pp. 29–48.
6. Government of India. *India at G20: A Decade of Multilateral Diplomacy*. – New Delhi: Ministry of External Affairs, 2023. – 310 p.
7. Government of India Official Website: Ministry of External Affairs [Electronic Resource]. – Access Mode: [www.meaindia.gov.in](http://www.meaindia.gov.in).
8. Gupta, A. K. *Globalization and India's Trade Policy* / A. K. Gupta. – New Delhi: Springer, 2020. – 400 p.
9. Institute of South Asian Studies. *India-Bangladesh Relations: Progress and Challenges*. – Singapore, 2022. – 280 p.
10. International Energy Agency (IEA). *India's Renewable Energy Transition: Opportunities and Challenges*. – Paris, 2022. – 230 p.
11. International Monetary Fund (IMF). *India in the Global Economy: Challenges and Prospects*. – Washington, D.C., 2023. – 290 p.
12. Khilnani, S. *The Idea of India* / S. Khilnani. – London: Penguin Books, 2016. – 320 p.
13. Madan, T. *The U.S.-India Partnership: Navigating Divergences and Building Convergences* / T. Madan. – Washington, D.C.: Brookings Institution, 2020. – 265 p.
14. Malone, D. M. *Does the Elephant Dance? Contemporary Indian Foreign Policy* / D. M. Malone. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 370 p.
15. Mohan, C. Raja. *Crossing the Rubicon: The Shaping of India's New Foreign Policy* / C. Raja Mohan. – New Delhi: Viking, 2003. – 340 p.
16. Nehru, J. *The Discovery of India* / J. Nehru. – 1946. – 500 p.
17. Pant, H. V. *Indian Foreign Policy: An Overview* / H. V. Pant. – New Delhi: Oxford University Press, 2016. – 310 p.
18. Paul, T. V. *The Warrior State: Pakistan in the Contemporary World* / T. V. Paul. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 360 p.
19. Sikri, R. *Challenge and Strategy: Rethinking India's Foreign Policy* / R. Sikri. – New Delhi: Sage Publications, 2009. – 290 p.
20. Singh, Z. D. *Powershift: India-China Relations in a Multipolar World* / Z. D. Singh. – New Delhi: Macmillan India, 2018. – 320 p.
21. Stockholm International Peace Research Institute (SIPRI). *India's Defense Spending and Global Military Partnerships*. – Stockholm, 2023. – 310 p.
22. Tellis, A. J., Debroy, B. *India as a New Global Power* / A. J. Tellis, B. Debroy. – Washington, D.C.: Carnegie Endowment for International Peace, 2001. – 280 p.
23. United Nations. *India and the UN: A Partnership for Peace and Development*. – New York, 2022. – 270 p.
24. World Bank. *India's Economic Outlook: Rising to Global Leadership*. – Washington, D.C., 2022. – 290 p.